
Audi avtomobil plastmassalarini qayta işlaş böyiça yangi kompaniya taşkil etdi

// 19 November 2026 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/audi-avtomobil-plastmassalarini-qayta-islas-boeyica-yangi-ko



Germaniyaning Audi AG avtomobil işlab çiqaruvçisi foydalaniş muddati tugagan transport vositalaridan xomaşyoni ajratib oliş va qayta işlaş bilan şuğullanuvçi Audi Circular Solutions nomli şöba kompaniyasini taşkil etdi.

Kompaniya ma’lumotiga köra, yangi tuzilmaning asosiy yönalişlaridan biri plastmassalarni qayta işlaş va ularni avtokonsernning yetkazib beriş zanjiriga qayta jalb etiş orqali birlamçi polimer xomaşyosiga bölgan qaramlikni kamaytirişdan iborat.

Yangi korxona 2027-yil boşida öz faoliyatini boşlaydi. Loyiha Audi Materialloop taşabbusi doirasida töplangan tajriba va işlanmalarga asoslangan. **Uşbu taşabbus doirasida avtomobil işlab çiqaruvçisi yetkazib beruvçilar va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda materiallarni ajratib oliş hamda**

ularni seriyali işlab çiqarişga qaytariş texnologiyalarini sinovdan ötkazmoqda.

Ixtisoslaşgan operatorning taşkil etilişi avtomobil sanoatining Yevropa Ittifoqida transport vositalarini utilizatsiya qiliş töğrisidagi ELVR reglamenti kuçga kirişiga tayyorgarlik körişi bilan boğliq.

Yangi talablarga muvofiq, 2032-yil sentyabridan boşlab yangi yengil avtomobillar va furgonlarda işlatiladigan polimerlarning umumiy massasida ikkilamçi plastmassa uluşi kamida 15 foizni taşkil etişi, 2036-yil sentyabriga kelib esa bu körsatkiçni 25 foizga yetkaziş belgilangan.

Bunda ikkilamçi plastmassaning kamida beşdan bir qismi bevosita utilizatsiya qilingan avtomobillardan olingan materiallar hissasiga töğri kelişi lozim.

Yangi tuzilma Volkswagen boş kompaniyasining yopiq siklli iqtisodiyotni rivojlantirişga qaratilgan yagona strategiyasining bir qismiga aylanadi. Avvalroq konsern vakillari sifatli avtomobil ikkilamçi xomaşyosi taqçilligi mavjudligini ta’kidlab, **Germaniyaning Svikkau şahridagi zavodni sirkulyar iqtisodiyot markaziga aylantiriş uçun 90 million yevrogaça (98,9 million AQŞ dollari) investisiya kiritiş rejasini e’lon qilgan edi.**

Mazkur markaz 2030-yilga kelib yiliga 15 mingtagaça avtomobilni qayta işlaş quvvatiga ega bölişi kutilmoqda.